

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

3-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

O'zbekistonda nomoddiy madaniy meros muhofazasi.....	332
<b>U.N.Olimov</b>	
Arab tarixshunosligida XIX asr oxirida Markaziy Osiyodagi siyosiy jarayonlar va Rossiya imperiyasi bosqinining o'rganilishi .....	336
<b>M.Q.Tolibboyev</b>	
O'zbekiston hududida mahallaga xos ilk belgilarning paydo bo'lishi va boshqaruv an'analarga doir mulohazalar .....	340
<b>X.S.Jumanazarov</b>	
Xalq tabobatida davolash usullarining mintaqaviy xususiyatlari.....	346
<b>Sh.N.Jo'rayev</b>	
Sulton Husayn Boyqaro davrida diniy ulamolarning o'rni.....	351
<b>O.M.Normatov</b>	
O'zbekistonda o'tkazilgan rayonlashtirish natijalari.....	356
<b>D.G'.Mirzayev</b>	
"Turkiston viloyatining gazetasi" da Qo'qon xonligining bosib olinishiga oid ma'lumotlar tahlili .....	361
<b>A.O.Toirov</b>	
Anushteginiylar sulolasi davrida ijtimoiy hayot.....	369
<b>P.A.Nabiyev</b>	
"Farg'ona vodiysi tojiklarining farzand tug'ilishi va to'y marosimlari bilan bog'liq bo'lgan urf-odat va an'analari (Qorategin tojiklari misolida)" .....	373
<b>A.A.Mamadjanov</b>	
Muhammad Vafo Karmanagiy – Buxoro amirligi tarixchilik maktabining ilk vakili .....	378
<b>P.A.Арслонзода</b>	
Тасвири макотиб ва мадориси аморати бухоро дар "Ёддоштҳо"-и Садриддин Айни .....	382

#### ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.A.Kasimov, Sh.G'.Akbarova</b>	
Badiiy retsepsiyaning nazariy asoslariga doir.....	389
<b>Z.J.Pardayeva</b>	
Dostoevskiy, Baxtin, Polifonik roman .....	393
<b>H.Jo'rayev</b>	
Totem tushunchalarning ijtimoiy tafakkur tarixidagi o'rni.....	401
<b>K.A.Jamahmatov</b>	
Adabiy manbalarda Arshiy Termiziyning hayoti va ijodiy faoliyatining tadqiqi .....	404
<b>X.Jo'rayev, M.Ismoilova</b>	
Ijtimoiy tafakkurning majoziy ifodasi .....	410
<b>I.I.Rustamova</b>	
Dramada sahnada ko'rinmaydigan qahramon va uning badiiy talqini .....	413
<b>M.A.Jo'rayeva</b>	
Jadid adabiyotida safarnoma janri va uning taraqqiyoti .....	417
<b>M.Islomova</b>	
Taqlid va Tasvir .....	421
<b>D.G'.Gafurova, A.A.Qayumov</b>	
Isajon Sulton hikoyalarda shamol timsoli.....	424
<b>X.T.Мирзаев</b>	
Талқини рукнҳои арӯзӣ дар рисолаи "Меъроҷ-ул-арӯз"-и Муҳаммад Фиёсиддин .....	428
<b>N.Q.Bo'riyeva</b>	
J.R.R.Tolkinning "Uzuklar hukmdori" asarida yaxshilik kontsepti.....	433
<b>M.Sh.Dehqonova</b>	
Mustaqillik davri dramaturgiyasi va adabiy tanqid.....	440
<b>G.A.Mashrapova</b>	
Ertak syujet tiplarida qidiruvga qarshi safar (antiqidiruv) motivi turlari.....	445
<b>Q.V.Yo'lchiyev</b>	
Abdulla Sherning "Ikki ayol haqida qo'shiq" she'ri tahlili .....	449
<b>B.N.Isakova</b>	
Adabiyotda badiiy va mushtarak tarjimaning ahamiyati .....	456



UO'K: 821.161.1-3:82-3

**DOSTOEVSKIY, BAXTIN, POLIFONIK ROMAN****ДОСТОЕВСКИЙ, БАХТИН, ПОЛИФОНИЧЕСКИЙ РОМАН****DOSTOEVSKY, BAKHTIN, POLYPHONIC NOVEL****Pardayeva Zulfiya Jo'rayevna** Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti, filologiya fanlari doctori,  
professor**Annotatsiya**

Maqolada polifonik roman asoschisi F.Dostoevskiy badiiy mahorati tahlil etiladi. Yozuvchining falsafiy, psixologik yoki ijtimoiy-psixologik deb yuritilgan «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar», «Telba» kabi romanlari M.Baxtin tadqiqotlari natijasida o'zining xolisona bahosini oldi. Dostoevskiyning o'zi ham e'tirof etgan «boshqacha tafakkur etish» ning ijod psixologiyasida voqeyilikni, olamni, qahramon botiniy kechinmalarini yangicha idrok etishi natijasida turli fikr, kechinma va qarashlarning birdan jaranglashi, asar strukturadagi ko'p ovozlilik, ko'pqatlamlilikni yuzaga keltiradi. Aynan mana shu yangicha tafakkur etish va uning badiiy talqini falsafiy va psixologik romanlar poetikasi badiiy xususiyatlaridan tubdan farq qiladi. Dostoevskiyning badiiy-estetik novatorligi natijasida olamni, inson ruhiy olamini badiiy mushohada etishning yangi modeli yuzaga keldi. M.Baxtin yozuvchi romanlarini bir yoqlama talqin etish "uning polifonik poetikasini monologlashtirib qo'yadi" degan qat'iy fikrni bildirdi. F.Dostoevskiy mukammal talqin darajasiga ko'targan tom ma'nodagi inson botiniy olami, uning voqelikdagi mavjudligi polifonik talqinning ta'siri natijasidir. «Polifonik poetika» termini aynan polifonik roman poetikasini anglatadi, «roman poetikasida polifoniya ko'rinishi» tushunchasini polifonik bo'lmagan romanda polifonik talqin ayrim hollarda namoyon bo'lishini anglatadi. Polifoniya xos bo'lgan ikki ovozlilik eng ko'p namoyon bo'ladigan polifonik badiiy komponentlardandir. Polifonik roman badiiy hodisa sifatida adabiy jarayonga ijobiy ta'sir qildi: modern romanlardagi ong talqinida, realistik romanlardagi qalb va ruh kechinmalarida namoyon bo'la bordi, roman janr dinamikasining keyingi davrlarida janrlar sintezlashuviga olib keldi.

**Аннотация**

В статье анализируется художественное мастерство Ф.Достоевского, основоположника полифонического романа. В результате исследования М.Бахтина получили свою объективную оценку такие философские, психологические или социально-психологические романы писателя, как «Преступление и наказание», «Братья Карамазовы», «Идиот». В результате нового восприятия действительности, мира, внутренних переживаний героя в творческой психологии «иного мышления», что признавал сам Достоевский, одновременное звучание разных мыслей, переживаний и взглядов создает многоголосие и многослойность в структуре работы. Именно этот новый образ мышления и его художественная интерпретация в корне отличаются от художественных особенностей поэтики философских и психологических романов. В результате художественно-эстетического новаторства Достоевского возникла новая модель художественного наблюдения мироздания — психики человека. М.Бахтин высказал твердое мнение, что однолинейная трактовка романов автора «монологизирует его полифоническую поэтику». Внутренний мир человека, который Ф.Достоевский возвел на уровень совершенной интерпретации, его существование в действительности есть результат влияния полифонической интерпретации. Если под термином «полифоническая поэтика» имеется в виду поэтика полифонического романа, то понятие «появление полифонии в поэтике романа» означает, что в неполифоническом романе в ряде случаев появляется полифоническая интерпретация. Двойственность, свойственная полифонии, является одним из наиболее часто проявляющихся полифонических художественных компонентов. Полифонический роман как художественное явление оказал положительное влияние на литературный процесс: он проявился в интерпретации сознания в модернистских романах, в переживаниях сердца и души в реалистических романах, в последующих периодах динамики жанра романа привел к синтезу жанров.

**Abstract**

The article analyzes the artistic skills of F.Dostoevsky, the founder of the polyphonic novel. The writer's philosophical, psychological or socio-psychological novels such as "Crime and Punishment", "The Brothers Karamazov", "The Madman" received their objective assessment as a result of M. Bakhtin's research. As a result of the new perception of reality, the world, the inner experiences of the hero in the creative psychology of "thinking differently", which Dostoevsky himself recognized, the sudden resounding of different thoughts, experiences and views creates multi-voicedness and multi-layeredness in the structure of the work. It is this new way of thinking and its artistic interpretation that is fundamentally different from the artistic features of the poetics of philosophical and psychological novels. As a

result of Dostoevsky's artistic and aesthetic innovation, a new model of artistic observation of the universe, the human psyche, emerged. M.Bakhtin expressed a firm opinion that a one-sided interpretation of the author's novels "monologizes his polyphonic poetics." The literal human inner world, which F.Dostoevsky raised to the level of perfect interpretation, its existence in reality is the result of the influence of polyphonic interpretation. If the term "polyphonic poetics" means the poetics of a polyphonic novel, the concept of "appearance of polyphony in the poetics of a novel" means that a polyphonic interpretation appears in some cases in a non-polyphonic novel. The duplicity characteristic of polyphony is one of the most frequently manifested polyphonic artistic components. The polyphonic novel as an artistic phenomenon had a positive effect on the literary process: it was manifested in the interpretation of consciousness in modern novels, in the experiences of the heart and soul in realistic novels, and led to the synthesis of genres in the later periods of the dynamics of the novel genre.

**Kalit so'zlar:** polifonik roman, F.Dostoevskiy, ko'p ovozlilik, ko'p qatlamlilik, badiiy-estetik novatorlik, monologlashtirish.

**Ключевые слова:** полифонический роман, Ф.Достоевский, многоголосие, многослойное, художественно-эстетическое новаторство, монололизация.

**Key words:** polyphonic novel, F.Dostoevsky, polyphonic, multi-layered, artistic-aesthetic innovation, monologization.

## KIRISH

Badiiy asarda polifonik talqin shakllanishi qanchalar F.Dostoevskiy nomi bilan bog'liq bo'lsa, badiiy polifoniya nazariyasining yaratilishi shunchalar M.Baxtin ilmiy tadqiqotlari bilan asoslangan. Uning F.Dostoevskiy ijodi ilmiy-badiiy tahlil qilingan «Dostoevskiy poetikasi muammolari» [1, 467] tadqiqotida badiiy polifonizm mohiyati mufassal tahlil etildi. Yozuvchining falsafiy, psixologik yoki ijtimoiy-psixologik deb yuritilgan «Jinoyat va jazo», «Aka-uka Karamazovlar», «Telba» kabi romanlari M.Baxtin tadqiqotlari natijasida o'zining xolisona bahosini oldi. Dostoevskiyning o'zi ham e'tirof etgan «boshqacha tafakkur etish» ning ijod psixologiyasida voqelikni, olamni, qahramon botiniy kechinmalarini yangicha idrok etishi natijasida turli fikr, kechinma va qarashlarning birdan jaranglashi, asar strukturasiidagi ko'p ovozlilik, ko'p qatlamlilikni yuzaga keltiradi. Aynan mana shu yangicha tafakkur etish va uning badiiy talqini falsafiy va psixologik romanlar poetikasi badiiy xususiyatlaridan tubdan farq qiladi. Murakkab ruhiy iztiroblar, insonning zohiran va botinan namoyon bo'lishi talqin jarayonida yangicha badiiy uslublar yuzaga kelishiga zamin hozirladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Mavzuni yoritishda qiyosiy-tipologik tahlil, tarixiy poetika tahlili; immanent tahlil metodlaridan foydalanildi.

Dostoevskiyning badiiy-estetik novatorligi natijasida olamni, inson ruhiy olamini badiiy mushohada etishning yangi modeli yuzaga keldi. «Shuning uchun ham uning ijodi biz Yevropa romanlarida ko'rib o'rgangan hech qaysi romanga, hech qaysi, hech qanday badiiy sxemaga bo'ysunmaydi... Shuning uchun ham F.M.Dostoevskiy ijodini yo diniy, yo realistik, yo g'oyaviy nuqtai nazardan o'rganish uning polifonik poetikasini monofonlashtirib qo'yadi», - deb yozadi M.Baxtin.[1, 477]

Dostoevskiy romanlari poetikasiga xos bo'lgan ko'pqirralilik, ko'ptimsollilik, ko'povozlilik roman janrining yangi badiiy imkoniyatlarini - polifonik talqini kashf etdi. Badiiy polifoniya poetikasi jarangdor, serjilva belletristik badiiy so'z ohangdorligi bo'lmay, badiiy talqin zamiridagi mantiqiy uyg'unlik yo'naltirilgan asosiy maqsad - insonni badiiy kashf etish, inson muammolari va insonparvarlik g'oyalarini ulug'lash demakdir. Polifonik badiiy talqin zamirida ko'p qatlamlilik, ko'povozlilik, ko'pma'nodoshlik inson obrazini mukammalroq ochib berishga xizmat qilar ekan, tabiiyki, badiiy polifoniya nafaqat qahramon talqinining mukammalligini, balki roman janri imkoniyatlarini ham kengroq namoyon qiladi.

Simfonik musiqaga xos bo'lgan ko'povozlilik polifoniyasi badiiy asarda yuzaga kelishi, tabiiyki, polifoniyaning ham yangi imkoniyatlarini kashf etadi. Katta Sovet ensiklopediyasida polifoniyaga «... musiqadagi bir nechta mustaqil ohanglarning bir vaqtning o'zida uyg'un holda kelishi va rivojlanishiga asoslangan ko'povozlilik turi» - deb ta'rif beriladi. [3, 591]

Adabiy ensiklopedik lug'atda esa polifoniyaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Polifoniya musiqasi istilohi bo'lib, u M.Baxtin tomonidan adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan qayta tafakkurdan o'tkazilgan va uning «Dostoevskiy poetikasi muammolari» kitobida ilmiy istiloh sifatida fanga kiritilgan. M.Baxtin bo'yicha polifoniya tushunchasi yangi janrning yuzaga kelishi bilan, ya'ni

## ADABIYOTSHUNOSLIK

polifonik roman va badiiy tafakkurning an'anaviy monologik tipidan farq qiluvchi o'ziga xos tipi bilan chambarchas bog'liqdir». [11, 521]

Polifonik roman poetikasini M.Baxtinning roman nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganar ekanmiz (F.Dostoevskiy romanlari misolida), roman tafakkurida yozuvchi ongi, aql-idroki, poetik tafakkuri, ustuvor talqin uslubi qahramonlarga yangi badiiy pozitsiyadan turib yondashishini talab etishiga amin bo'lamiz. Bu esa Dostoevskiygacha bo'lgan g'arb, rus va boshqa romanchilik maktablariga xos bo'lgan monologik tipdan farq qiluvchi dialogik tipdir. Bu dialogik tipning o'ziga xosligi shundaki, roman tafakkuriga jalb etilgan g'oya badiiy talqinini ta'minlovchi qahramon mustaqilligini, botiniy erkinligini tasdiqlaydigan uning hayoti oldindan rejalashtirilgan badiiy talqin in'ikosi bo'lmay, balki roman badiiy voqeligi dinamikasi natijasida rivojlanadigan noaniqlikdir. Yozuvchining oxirgi va yakunlangan bahosiga bo'ysunmaydigan pozitsiyadan turib yondashishi ham polifonik roman badiiy xususiyatlaridan biridir.

Badiiy asardagi talqin uslubining tahlili roman mohiyatidan kelib chiqib amalga oshirilgan ekan, tabiiyki, birinchi navbatda, janr imkoniyatlari yozuvchi ijodiy imkoniyatlaridan kelib chiqib namoyon bo'lishi tahlil etiladi. Bunda nafaqat talqin uslubi oydinlashadi, balki aynan shu talqin uslubida yozuvchi kashf eta olgan o'z uslubiy talqini ham namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham M.Baxtinning «Dostoevskiy poetikasi muammolari» asari yozuvchi poetikasi mohiyatini ochib beribgina qolmay, ayni paytda, badiiy polifoniya nazariyasi ham hisoblanadi.

F.Dostoevskiy romanlarini ilmiy tahlil qilgan M.Baxtin o'z tadqiqotigacha bo'lgan ishlarga ham munosabatini bildiradi. Uning ko'rsatishicha, Dostoevskiy ijodiga bag'ishlangan Rozanov, Volinskiy, Merejkovskiy, Shestovlar tayangan tadqiqotlarda falsafiy monologlashtirish tamoyili yozuvchi badiiy olami tuzilishining «ko'povozlilik» xususiyatini ochib berolmaydi. Dostoevskiy romanlarining o'ziga xos tuzilishini ilk bor Vyacheslav Ivanov «tushunganday bo'ldi» deb aniqlik kiritgan M.Baxtin uning adib dunyoqarashining olamni badiiy tafakkur etish va mukammal badiiy san'at darajasida qurilgan roman mohiyatiga aylanishini ko'rsatib bermaydi. Noaniq dunyoqarashning etik-mistik prinsipi sifatida emas, faqat mana shu aniq adabiy tuzilish shaklidagina u adabiyotshunos uchun mavjuddir. O'zining qimmatli fikr-mulohazalariga qaramay, V.Ivanov Dostoevskiy romanini monologik tip deb qabul qiladi.

V.Ivanov tomonidan F.Dostoevskiy romanini janr sifatida roman-tragediya deb ta'riflanishini noto'g'ri deb hisoblagan M.Baxtin bu kabi tahlil natijasida F.Dostoevskiy romani qandaydir badiiy gibril sifatida namoyon bo'ladi, deb ta'riflaydi. S.Askalkov xulosalari ham V.Ivanov fikrlariga yaqin. Agar L.Grossman Dostoevskiyning kompozitsion prinsiplarini anglaganda, adib romanlarining to'liq badiiy yechimi – polifoniyani anglagan bo'lar edi, - deb o'z fikrlarini yakunlaydi adabiyotshunos.

M.Baxtin, shuningdek, B.M.Engelgartning «Voqelikka nisbatan qahramon badiiy munosabati prinsipi uning olamga g'oyaviy munosabatining u yoki bu shaklidir» [1, 39], - degan xulosalariga alohida e'tibor beradi. B.M.Engelgart birinchi bo'lib Dostoevskiy romanlarida g'oya boshqa romanlardan farqli tasvir prinsipi emas, balki tasvir manbaidir [1, 42], - deb ta'riflaydi. Engelgart ham Dostoevskiyga xos badiiy o'ziga xoslikni ochib beradi, ammo uning asosiy xatosi Dostoevskiy romanlarini g'oyaviy deb tahlil etishdan kelib chiqadi. Holbuki, uning qahramoni inson edi, o'zi e'tirof etganidek, u inson ko'nglidagi g'oyani emas, «insonning o'zidagi insonni» tasvirladi.

Xullas, M.Baxtin fikricha, «Engelgard Dostoevskiy badiiy erkinligini to'liq anglab yetmadi. Mavjud onglar polifoniyasini muayyan bir ong ovozigacha bo'ysundirgan holda yozuvchi badiiy erkinligini falsafiy-monologik», - deb ta'riflaydi. [1, 47]

M.Baxtin tahlil jarayonida A.V.Lunacharskiyning «Dostoevskiyning «ko'povozlilik» xususidagi maqolasiga ham alohida e'tibor beradi, uning fikr-mulohazalari o'rinli ekanligini ta'kidlaydi. Olamga nisbatan munosabat, dunyoqarash mohiyatida polifoniyaning genetik tahlilini mukammal olib borgan Lunacharskiy Dostoevskiyga ijtimoiy shaxs sifatida va badiiy polifoniyaga o'zi mansub davrdagi ijtimoiylik nuqtai nazaridan kelib chiqib yondashadi.

A.V.Lunacharskiy o'zining tarixiy-genetik tahlilida Dostoevskiy mansub davr ziddiyatlarini va yozuvchining ikki ovozliligini ochib beradi. Ammo bu sermazmun omillar badiiy talqin etishning yangi shaklida namoyon bo'lguncha, polifonik romanning yangi tuzilishini yaratguncha umumestetik va adabiy an'analar uzoq vaqt davomida tayyorgarlik ko'rishi lozim. Badiiy talqin etishning yangi shakllari sekinlik bilan uzoq vaqt davomida tayyorlanadi. Yangi shaklning to'liq yuzaga kelishi va joriy etilishi uchun davr faqat qulay shart-sharoitlar yaratadi, xolos. Polifonik romanning badiiy

tayyorgarligi jarayonini ochib berish tarixiy poetika vazifasidir. Albatta, poetikani ijtimoiy-tarixiy tahlildan ajratish mumkin emas, ammo unga singdirib ham yuborish mumkin emas, - deya M.Baxtin A.V.Lunacharskiy tahliliga yakuniy munosabatini bildiradi. [1, 63]

M.Baxtin, shuningdek, V.Kirpotin, V.Shklovskiy, L.Grossman tahlillariga ham alohida to'xtalib o'tadi. Ularga obyektiv baho berish orqali Dostoevskiy polifonik talqinini ochib berishga xizmat qiluvchi omillar xususida batafsil fikr yuritadi.

F.Dostoevskiy romanlarini tahlil qilgan M.Baxtin o'z tadqiqotigacha yaratilgan ilmiy tahlillar ichida L.P.Grossman tadqiqotiga yuqori baho beradi: «L.P.Grossman - bizning adabiyotshunosligimizda Dostoevskiy poetikasini obyektiv va mukammal tahlil qilishning asoschisidir». [5, 335]

F.Dostoevskiy badiiyatining o'ziga xosligi nafaqat rus adabiyotshunosligida, balki g'arb adabiyotida ham e'tirof etildi. Ammo bu shunchaki e'tirof bo'lmay, Dostoevskiy roman maktabi yuzaga kelishiga sabab bo'ldi. Ayniqsa, ong talqiniga ko'proq e'tibor qaratilgan g'arb modern romanlariga yozuvchi uslubining ta'siri kuchli bo'ldi. Bu hol XIX asrning oxiri - XX asrning boshlarida fransuz, italyan adabiyotida yaqqol namoyon bo'la bordi. Negaki, XIX asrning oxirida monopoliyalarning ta'siri mamlakatda iqtisodiy ahvolning yomonlashuviga olib keldi, jamiyatdagi nosog'lom kayfiyat, siyosiy ixtiloflar, moddiy qiyinchiliklar inson ruhiga ta'sir qilmay qolmadi, davlat va fuqarolar o'rtasidagi kelishmovchiliklar ko'pgina hollarda to'qnashuvlarga sabab bo'ldi. Bu jarayon jamiyat badiiy-estetik tafakkuri darajasi hosilasi bo'lmish roman janr taraqqiyotiga ham ta'sir qilmay qolmadi.

An'anaviy roman tafakkuri va jamiyat badiiy-estetik tafakkuri o'rtasida tafovut sezilib qoldi. Shunga ko'ra g'arb romanlarida ko'proq inson ongida, ruhiyatida yuz berayotgan o'zgarishlar, ixtiloflar, evrilishlar talqin etila boshladi. Shu sababdan ham F.Dostoevskiyning noan'anaviy romanlari ta'siridan ham F.Dostoevskiyning shaxs-yozuvchi sifatidagi ta'siri kuchliroq bo'ldi. Fransuz yozuvchilari J.-L.Filipp, A.Jid, F.Nisshe, M.Prustlar erishgan ijodiy yutuqlar XIX asr rus prozasida Gogol va Lermontovlar asos solgan, F.Dostoevskiy mukammal talqin darajasiga ko'targan tom ma'nodagi inson botiniy olami, uning voqelikdagi mavjudligi polifonik talqinning ta'siri natijasidir. Lekin badiiy polifoniya modernist yozuvchilar asarlarida mukammal o'zlashtirilmadi, balki uning muayyan bir jihatlarigina namoyon bo'lib, shu jihat talqiniga alohida urg'u berildi. Modern roman poetikasida ong talqini alohida ajralib turishi va syujet qurilishi e'tibordan qolishi ham mukammal namoyon bo'lmagan polifoniya poetikasining ko'rinishlaridandir. Bu o'rinda polifoniya to'liq shakllangan badiiy janr sifatida emas, balki muayyan bir janrning yuzaga kelishida badiiy komponent namoyon bo'ladi. Shu sababdan ham modern romanlarida talqin polifonik talqin darajasiga ko'tarila olmaydi.

Bu holni boshqa metod va janrlarda ham kuzatish mumkin. Roman mazmuniga ko'ra falsafiy, psixologik, tarixiy, ijtimoiy-falsafiy yoki ijtimoiy-psixologik bo'lishi mumkin, talqin jarayonida ayrim o'rinlarda polifoniyaning zohir bo'lishi esa romanni janr sifatida polifonik deb aniqlik kiritish uchun imkon bermaydi. Ayniqsa, polifoniyaga alohida urg'u beruvchi tahlil adabiyotshunoslikda M.Baxtinning «Dostoevskiy poetikasi muammolari» asari yuzaga kelgandan so'ng faollashdi, desak adashmaymiz. Bu jarayonni ifodalashda polifonik poetika yoki roman poetikasida polifoniya ko'rinishi deb izohlash mumkin. Bu o'rinda «polifonik poetika» tushunchasi aynan polifonik roman poetikasini anglatadi, «roman poetikasida polifoniya ko'rinishi» tushunchasini janr bo'yicha polifonik bo'lmagan romanda polifonik talqin ayrim hollarda namoyon bo'lishi deb tushunamiz. Polifoniyaga xos bo'lgan ikkiovozlilik eng ko'p namoyon bo'ladigan polifonik badiiy komponentlardandir. Bu jarayonning modern romanlaridagi ong talqinida, realistik romanlardagi qalb va ruh kechinmalarida namoyon bo'la borishi roman janr dinamikasining keyingi davrlarida janrlar sintezlashuviga olib keldi. Ya'ni modernizm va realizm sintezi, tanqidiy realizm va modernizm sintezi, sotsialistik realizm va realizm sintezi aynan polifoniyaning janr talqinida namoyon bo'lishi bilan bog'liq jarayondir. Bu jarayonning roman janr dinamikasiga ijobiy ta'sir qilishini XX asr roman janr tadriji tahlildan ham ko'rsa bo'ladi.

## NATIJALAR

Dostoevskiy poetikasini ilmiy va badiiy tahlil qilgan M.Baxtin roman janr tizimlari uyg'unligini alohida tadqiq qilar ekan, polifonik romanda syujet va kompozitsiya qurilishi, badiiy qahramon va unga nisbatan muallif munosabati, romanda g'oya vazifasi, muallif obrazi kabi badiiy komponentlar

## ADABIYOTSHUNOSLIK

an'anaviy romanlar poetikasida bajargan vazifalarga (yoki funksiyalar) nisbatan polifonik romanda yanada qat'iyroq talablar qo'yiladi.

G'arb romannavislari F.Dostoevskiy ijodidagi insonga xos bo'lgan barcha xususiyatlar, hatto patologik nomukammalliklar talqini ham yozuvchi novatorligining asl mohiyati ekanligini tushunmadilar, romanga jalb qilingan «voqelik va badiiy ziddiyat dinamikasini anglay bilmadilar, balki yozuvchi romanlari tahlilga jalb etib bo'lmaydigan turg'un (jonsiz) epizodlardan iborat deb hisobladilar». [4, 47]

To'g'ri, fransuz modernistlari Dostoevskiyning badiiy ijod maktabidan o'rganadilar, ammo ular rus romaniga singdirib yuborilgan tabiiy va badiiy uyg'unlikning alohida komponentlarinigina o'z romanlariga tatbiq etar edilar. Shu sababdan ham Dostoevskiy ko'tarila olgan roman janr tadrijiga ular ko'tarila olmadilar. Dostoevskiy va uning ijodiy metodini shu zaylda tushunmoq yozuvchi falsafasini va badiiy tasvir mohiyatini anglash doirasini cheklab, yozuvchi badiiy olamini qashshoqlashtirib qo'yadi», - deb ta'kidlaydi A.Vladimirova.

Fransuz yozuvchisi A.Syuares F.Dostoevskiy o'z ijodiy ustozini deb tan oladi va yozuvchini nafaqat Rossiyada, balki g'arbda ham barcha dekadent oqimlari namoyondalarini ilhomlantiruvchi yozuvchi deb uni dekadentlar rahnamosiga aylantirishi biz yuqorida zikr etgan Dostoevskiy badiiyatini, uning poetikasini noto'g'ri tushunishdan deb bilamiz. F.Dostoevskiy badiiy olami murakkabligini anglab yetmagan A.Syuares yozuvchi qahramonlarining ichki olami o'ta ziddiyatli ekanligini ta'kidlagan holda, «Adashmasam, tan olsak, Dostoevskiy ham men kabi, biz ratsional zo'ravonlikka, g'ayriinsoniy falsafaga va har qanday g'ayriinsoniy zaharga qarshi ziddi zaharmiz», - deya o'zini F.Dostoevskiy darajasiga ko'taradi. [4, 47-48]

F.Dostoevskiy badiiyatini anglash, kashf etish muammolari nemis yozuvchisi, Nobel mukofoti laureati Genrix Gesse ijodida ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'z ijodini g'arb ma'naviy olamida keskin o'zgarishlar kechayotgan ikki asr oralig'ida boshlagan Gesse Dostoevskiy ijodiga qayta va qayta murojaat etadi. «Dostoevskiyning «Telba» romani haqida mulohaza», «Aka-uka Karamazovlar yoki Rossiyaning inqirozi», «Xaosga nigoh», «Dostoevskiy» kabi maqolalarida Gesse Dostoevskiy badiiyatining mohiyatini tobora teranroq anglay boshlaganiga amin bo'lamiz. Badiiy ijod va yozuvchi shaxsi o'rtasidagi uzviylik, biri ikkinchisini to'ldirishi ayon bo'la borgan sayin Gesse ham romanlariga shaxsiy hayotini, xotira va kuzatishlarini olib kira boshlaydi, Dostoevskiy badiiy tafakkurini tushuna boshlagan Gesse ijodida ijobiy o'zgarishlar ro'y beradi. Lekin, shunga qaramay, asr boshida Freyd, Nisshe, Yung psixotahlilidan ta'sirlangan Gesse uchun Dostoevskiy badiiy tafakkuri sirli bo'lib qola beradi. «Dostoevskiy mavzusi» shu sababdan ham Gesse ijodining eng muhim muammolaridan biriga aylanadi. «Telba» va «Aka-uka Karamazovlar»ga bag'ishlangan ilk maqolalarida Gesse mushohadalarida ko'proq Freyd va Nisshe ta'siri sezilsa, «Dostoevskiy»da yozuvchi fikrlari birmuncha oydinlashadi, «Cho'l bo'risi» romanida esa Dostoevskiy ta'siri yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Ispan faylasufi Ortega-i-Gasset adabiyotning taraqqiyot yo'llarini tahlil qilar ekan, xoslar (elita) adabiyoti va ommaviy adabiyotga batafsil ta'rif bera turib, ommaga mansub shaxs o'rtacha, taraqqiyot sari intilmay, sharoitga moslashish bilan birga, jamiyatni ham shunga o'rgata borishini, bu hol esa jamiyat taraqqiyotiga o'ta salbiy ta'sir qilishini mantiqan izohlab berdi. O'rtamiyona shaxs obrazi rus romanida meshchan, nemis romanida bryuger qiyofasida gavdalandi. Ammo Gesse «bryugeri» Ortega ta'riflagan ommaviy o'rtamiyona qahramondan farq qiladi, hatto ba'zi o'rinlarda Dostoevskiy «Telba»siga yaqin turadi. E'tirof etish kerak, Gesse qanchalar Dostoevskiy badiiyatini anglagan sari uning ijodida aynan Gessegga xos poetik tafakkur shakllana bordi. Moderncha «bir badiiy nafas olishlik» abzaslarida inson ongida kechayotgan evrilishlar talqini, neoromantizmga xos bo'lgan g'ayritabiiy mo'jizalarning sodir bo'lishi orqali asar g'oyasida yuqori pafosga erishish, real hayotdagi tipik voqelik va obrazlarni yaratish orqali Gesse modernizm, neoromantizm, realizm kabi badiiy metodlar sintezlashuvini amalga oshirar ekan, voqealar rivojida aslo bo'shliq sodir bo'lmaydi, aksincha, mantiq mohiyati tasvirda uzviy bog'liqlik orqali yuzaga keladi. Shak-shubhasiz, Gesse badiiy olamini yuzaga keltirgan sub'ektiv va obyektiv omillarga buyuk realist yozuvchi F.Dostoevskiy ta'siri ham kiradi.

**MUHOKAMA**

Biz yuqorida zikr etgan F.Dostoevskiy romanlarini alohida qismlarga ajratib tahlil etilishi oqibatida g'arb adabiyotda qisman dostoevskiycha «badiiy talqin maktablari» yuzaga keldi. Xuddi

shunday adabiy ta'sir nemis adabiyotida German Gesse ijodida ham namoyon bo'ldi. German Gessening badiiy ijod yo'li XX asr boshlarida roman janri sohasida turli xil badiiy eksperimentlar olib borilayotgan bir davrga to'g'ri keldi. German Gesse poetik tafakkurida falsafiy, psixologik talqinga moyillik bo'lgani sababdan ham u o'z badiiy ijodida insonni insonning o'zidan kashf etishga e'tiborini qaratdi. Gesse ijodining badiiy tafakkur mohiyatini tahlil etar ekan, unda sharqona falsafa zohir bo'la borishini anglaymiz. Bunga sabab esa «Sharq, Osiyo Gessening tasavvurida insoniyatning va insonni yaratgan Onasi hisoblanadi, qadimgi hayot sirli, yerdagi qadimgi ilk hayot shu makonda boshlangani sababli, inson aql-idroki qanchalar ustamonlik qilmasin, u hanuzgacha qullik iskanjasida qolmoqda.

Sharq odami g'arb odamiga nisbatan ilk yaratish manbalariga yaqinroq, sharqona zakovat esa har qanday yangi ta'limotdan ko'ra Yaratganning anglab bo'lmas jumboqlariga yaqinroq deb tushungan Gesse Rossiyani Osiyo mistikasi bilan uyg'unlikda tasavvur etgan holda O'ziga Dostoevskiy badiiy ijodining mohiyatini anglatmoqchi bo'ladi»<sup>30</sup>. []

Gesse Dostoevskiyning anglagan sari yozuvchining ham unga ta'siri shunchalar kuchli bo'ldi, ammo bu ta'sir Gesse ijodida taqlidni emas, o'ziga xoslikni kuchaytirishga xizmat qildi. Xuddi mana shu o'ziga xoslik ikki yozuvchi talqinidagi yovuzlik mohiyatida yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi. F.Dostoevskiy badiiy talqinidagi yovuzlik mohiyatida olam inson qalbiga yovuzlik urug'ini sochar ekan, uni ruhiy qiynoqlarga duchor etadi, insonlik nafsoniyatidan mahrum qiladi, buning oqibatida esa ruhiy iztiroblar ruhiy evrilishlarga aylanadi.

Yovuzlik talqini Gesse ijodida o'ziga xos namoyon bo'ladi. Gesse qahramoni inkor etayotgan yovuzlik bu voqelik, ijtimoiy muhit ta'sirida yuzaga kelgan xudbinlik, jamiyatdagi ziddiyatlar ta'sirida o'lib borayotgan madaniyat. Gesse qahramoni intilgan mohiyat – katarsis. Demak, voqelik talqini jarayonida G.Gesse Dostoevskiy badiiylikidan ko'ra modern talqiniga yaqin turadi.[2, 226]

Dostoevskiy badiiy olami qanchalar serqirra, murakkab bo'lsa, uning poetik dahosi ham shu qadar yuksak. Ijod yo'lining so'nggi yillarida yon daftarchasiga o'z realizmining o'ziga xosligini ta'riflashi ham bashoratona edi: «Meni psixolog deb atashadi, bu to'g'ri emas. Men tom ma'nodagi realistman, inson qalbining barcha teranligini tasvirlayman, xolos». [1, 70]

Dostoevskiy o'z badiiy metodi mohiyatini «men tom ma'nodagi realistman» deb ta'riflashini to'liq anglab yetgan M.Baxtin ko'pgina adabiyotshunoslardan farqli o'laroq, yozuvchini realist yozuvchi ekanligini quyidagi uch omil bo'yicha ta'riflaydi:

Birinchidan, Dostoevskiy o'zini o'z ong olami qobig'iga berkinib olgan sub'ektivist-romantik deb emas, aksincha, realist deb hisoblaydi; o'zining yangi (badiiy - Z.P.) vazifasi - «inson qalbining barcha teranligini tasvirlashni» mukammal realizm orqali amalga oshiradi, ko'ngil teranligini o'zidan tashqarida, o'zga qalblarda ko'radi;

Ikkinchidan, Dostoevskiyning fikricha, bu yangi vazifani bizlarning istilohimizga ko'ra an'anaviy monologik realizm mukammal bajara olmaydi, balki «insonda insonni kashf etish» uchun unga nisbatan eng yuqori realist munosabatda bo'lish kerak;

Uchinchidan, Dostoevskiy o'zini psixolog sifatida inkor etadi. [1, 71]

F.Dostoevskiy polifonik romanlari poetikasining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri g'oya badiiy talqinidir. An'anaviy romanlardan farqli, yozuvchi romanlarida g'oya tasvir predmetiga aylanadi, Dostoevskiyning o'zi esa «g'oyaning buyuk tasvirchisi» sifatida o'zini namoyon etdi», ammo g'oya romanda badiiy obraz miqyosida talqin etilar ekan, o'zini amalga oshiruvchi inson obrazidan alohida tasvirlanmaydi.

Dostoevskiy romanlaridagi g'oya talqini «bu inson miyasida muqim joylashib olgan sub'ektiv individual-psixologik shakllanish emas, balki g'oya na sub'ektiv va na individualdir, g'oyaning «yashash» makoni muayyan bir individual ong ham emas, balki onglar o'rtasidagi dialogik muloqot doirasidir, - deb ta'riflaydi M.Baxtin. [1, 68]

Rossiyalik tadqiqotchi S.U.Truning «XX-XXI asrlar oraliq'i rus nasriga Dostoevskiyning ta'siri» (“Рецепция Достоевского в русской прозе рубежа XX-XXI веков”) mavzuidagi filologiya fanlari nomzodlik dissertatsiyasi, [16] O'zbekistonlik adabiyotshunos olimi N.M.Petruxinaning

<sup>30</sup> Березина А.Г. Достоевский в восприятии Г.Гессе. В кн.: Достоевский в зарубежных литературах. – Л., 1978. Стр. 226.



## ADABIYOTSHUNOSLIK

“XX asr rus tarixshunosligi F.Dostoevskiyning axloqiy-psixologik romani an’anasi kontekstida” (“Русская историософия XX века в контексте традиции нравственно-психологического романа Ф.Достоевского”), [14] “XX asr jahon adabiy jarayonida F.M.Dostoevskiyning ta’sir maydoni” (“Рецептивное поле Ф.М. Достоевского в мировом литературном процессе XX века”) [15] deb nomlangan maqolasi e’tiborga molikdir. “O‘zbek adabiyotshunoslari e’tirof etgan XX asr o‘zbek adabiyoti romanchiligi taraqqiyotining asosini tashkil etgan Abdulla Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romani nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki O‘rta Osiyo va Qozog‘iston xalqlari badiiy dunyoqarashi tarixida ham badiiy hodisadir. Dostoevskiy va Qodiriyning roman badiiy tizimidagi o‘zaro bog‘liqligi (shakl va mazmun belgilari majmuiga ko‘ra) Baxtin tomonidan aniqlangan realistik “polifonik roman”ning asosiy xususiyatlari kontekstida ko‘proq ayon bo‘ladi: 1) “mustaqil va alohida ovozlari va onglarning ko‘pligi” [1, 6]; Nafaqat o‘ziga boshqa onglarni obyekt sifatida singdirgan bir ong yaxlitligi tarzida harakatlangan, balki oxirigacha biri biriga obyekt bo‘lmagan bir necha onglar o‘zaro munosabati yaxlitligi sifatida namoyon bo‘ladi. .< .> . . . dialogik ziddiyat imkonsiz qolishi uchun unda hamma narsa shunday tashkil topadi” [1, 20-22]; 3) asosiy xususiyati bo‘lib “shakllanish emas”, balki birga mavjud bo‘lish va o‘zaro ta’sir qilishdir [1, 33]; 4) roman tuzilishining barcha elementlari orasida dialogik munosabat mavjud bo‘lib, ular bir-biriga qarama-qarshi va ziddiyatlidir [1, 49]”. [15, 26]

## XULOS

«Jinoyat va jazo» romani qahramoni Raskolnikov ongida yovuzlik g‘oyasining tug‘ilishi va uning amalga oshirilishi qahramon ongidagi g‘oyaning boshqa ongga berilishi, tergovchi anglab yetgan mantiq mohiyatining Raskolnikov ongida qayta sintez qilinishi va bu sintez natijasida g‘oya tergovchi ongida qayta muloqotga kirishi qahramon ongida jazo muqarrarligiga ishonтира olmaydi. Sonya Marmeladovanning Raskolnikov jazoni o‘tayotgan manzilga kelib muqaddas kitob Injilni o‘qib berishi nafaqat Raskolnikovni, shu bilan birga ko‘plab mahkumlarni ham barcha bandalar Buyuk Yaratganning izmidagi ekanligini, ayniqsa roman qahramoni ongida o‘z jinoyatini anglashiga yordam beradi va amalga oshirgan xatti harakati uchun jazo muqarrar ekanligini ham tafakkuran, ham qalban, ham ruhan tushunadi. Olamni o‘zgartirish maqsadida amalga oshirgani – sudxo‘r ayol va uning singlisining hayotiga zomin bo‘lishi aslini olganda uning Yaratganga isyoni edi. Bunday murakkab polifonik tizim F.Dostoevskiy romanlarida badiiy talqin sifatida kashf etildi.

Polifonizmni adabiy kashfiyot sifatida talqin qilgan F.Dostoevskiy va uni ilmiy talqin va tahlil orqali asoslagan M.Baxtin asarlari adabiyotshunoslikda polifonik talqin va tahliliga asos bo‘ldi. Roman adabiy janrlar ichida eng murakkab va mukammal janr deb tan olingani kabi polifonik talqin ham falsafiy, psixologik, mistik, lirik talqinlar ichida eng murakkab va mukammal talqin sifatida kashf etilar ekan, tabiiyki, badiiy ijodda polifonik talqinga nisbatan ijodiy munosabat ham shakllanadi. Shu sababdan ham polifonik talqin muammolarini o‘rganish roman janri tadrijini o‘rganish kabi muhim va dolzarbdir.

Bir maqola imkoniyatidan kelib chiqib, uch muloqot shaklini ko‘rib chiqdik. Bular Dostoevskiyning daho yozuvchi sifatida juda ham keng – har qanday makon va zamoni lol qoldirgan mutolaa muloqoti ta’sir maydonini yuzaga keltirishi bo‘lsa, Baxtin tomonidan Dostoevskiyning murakkab roman tafakkurini va uni yuzaga chiqargan romaniy poetikani talqin va tahlil qilib berishi adabiyotshunosning yuksak ilmiy tafakkurini namoyon etadi va “Baxtin tahlil metodi” ilmiy maktabiga asos soladi. Yuzlab tadqiqotlar Baxtin qarashlari, xulosalari asosida amalga oshiriladi. Baxtindan so‘ng ham ko‘plab adabiyotshunoslar yetishib chiqdi, kechayotgan makon va zamonda buyuk adabiyotshunos kitoblari filologiya ilmi uchun ming yillar qadar Yo‘lchi yulduz bo‘lsa, ajabmas.

Polifonik roman yaratish ustida Dostoevskiy kashfiyot olib bormadi. O‘zi ta’riflagan “quyilib kelayotgan fikrlar oqimi” badiiyat mo‘jizasini yaratdi. U daho yozuvchi edi, ammo u aslo daholikka da’vo qilmagan. Hayotlik chog‘idayoq uning kitoblari qo‘lma-qo‘l bo‘ldi. Romanlaridagi g‘oyalar simfoniya singari bir vaqtning o‘zida turfa xil ohanglarda jarangladi. Bu buyuk san’at edi, bu badiiyat san’ati edi. Yuz yillar nari-berisi “mana man” degan yozuvchilar polifonik roman yo‘lida ter to‘kadi. Polifonik roman poetikasini yuzaga chiqargan “ko‘povozlilik”, “ko‘pg‘oyalik” yangi-yangi janrlarga, metodlarga yo‘l ochdi, polifoniya jaranglamagan fikrning o‘zi qolmadi. Polifonik roman janrini zabt etish go‘yoki “Xamsa” yaratishdek sharaf bo‘ldi.

Fanlararo munosabatlar aniqlashtirilayotgan davrimizda hammaga ma'lum bir qonuniyatni takrorlashni lozim topdik: Mendeleev jadvali aniq, Pifagor teorimasi o'zgarimas, Nyuton qonuni o'sha-o'sha. Dostoevskiyini rus adabiyotining "oltin asri"da tug'ilishi, buyuk yozuvchi bo'lib yetishishi tasodif emas, bir asr o'tib Dostoevskiy badiiyati kashf etilishi – bu zarurat, yozuvchi tomonidan polifonik romanning yaratilishi – badiiy kashfiyot, kashfiyot esa bir marotaba yaratiladi.

#### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бахтин М. М. Проблемы поэтики Достоевского // Бахтин М. М. Собр. соч.: В 7 т. М.: Русские словари: Языки славянской культуры, Вторая переработанная редакция издания 1963 года. 2002. Т. 6. С. 7–300, 466–505. <https://fedordostoevsky.ru/research/literary/050/>
2. Березина А.Г. Достоевский в восприятии Г.Гессе. В кн.: Достоевский в зарубежных литературах. – Л., 1978. Стр. 226.
3. Большая Советская Энциклопедия. Изд. 3. М.: Государственное изд-во, 1978. - С.591.
4. Владимирова А.И. Достоевский во французской литературе XX века. В кн.: Достоевский в зарубежных литературах. - Л.: Наука, 1978, стр. 37-61.
5. Гроссман Л.П. Собр. соч. В 5-ти томах. Т.2. Достоевский. Пут - поэтика - творчество. Вып1. Путь Достоевского. 210 с, вып. 2. Творчество Достоевского, 335 с. <https://kniganika.ru/antikvarnye-knigi/leonid-grossman.-sobranie-sochineniy-v-5-tomah-komplekt-iz-5-knig/>
6. Достоевский Ф.М. Преступление и наказание. АСТ. – 544 с.
7. Достоевский Ф.М. Жиноят ва жазо. – Тошкент. Янги аср авлоди, 2015. – 856 б. <https://elib.buxdupi.uz/books/F.Dostoyevskiy-Jinoyat%20va%20jazo.pdf>
8. Достоевский Ф.М. Братья Карамазовы. -Азбука. 2021. - 832 с.
9. Достоевский Ф.М. Телба. – Тошкент. Баёз. 2019. – 846 б. <https://asaxiy.uz/product/fyodor-dostoevskij-telba-1>
10. Достоевский в зарубежных литературах. - Л.: Наука, 1978. 240 с. <https://refdb.ru/look/1865999-pall.html>
11. Литературный энциклопедический словарь. - М.: Сов. Энциклопедия, 1987. С. 521. [https://readeralexei.narod.ru/Library/literaturnyi\\_enciklopedicheskiy\\_slovar\\_1987.pdf](https://readeralexei.narod.ru/Library/literaturnyi_enciklopedicheskiy_slovar_1987.pdf)
12. Pardayeva Zulfiya. Poetics of the Uzbek novel (as an example of the analysis of contemporary Uzbek novels). Monograph. LAMBERT. 2023. Complete reprint. P. 189. <https://www.amazon.com/POETICS-UZBEK-NOVEL-Zulfiya-Pardayeva/dp/6206162184>
13. Pardayeva Z. Ozbek romani poetikasi. -Т. Tamaddun. 2023. – 186 б.
14. Петрухина Н.М. Русская историософия XX века в контексте традиции нравственно-психологического романа Ф. Достоевского // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Литературоведение. Журналистика. 2021. Т. 26. № 3. С. 363-374. <https://cyberleninka.ru/article/n/russkaya-istoriosofiya-hh-veka-v-kontekste-traditsii-nravstvenno-psihologicheskogo-romana-f-dostoevskogo>
15. Петрухина Н.М. Рецептивное поле Ф.М. Достоевского в мировом литературном процессе XX века // Rhema. Рема. 2015. С. 18-26. <https://cyberleninka.ru/article/n/retseptivnoe-pole-f-m-dostoevskogo-v-mirovom-literaturnom-protsesse-hh-veka>
16. Трунин С.Е. Рецепция Достоевского в русской прозе рубежа XX-XXI веков: автореф. дисс.канд.филол.наук. М., 2008. – 24 с. <https://core.ac.uk/download/pdf/197388508.pdf>